

sport atamaları lugʻatini yaratish borasida kelgusida ularga yordam zarurligi koʻrinib turibdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Каримов, Амрулло Ашурович. Место и роль ток-шоу на каналах национального телевидения Узбекистана. Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета 3 (2012): 299-306.
2. Каримов А., Спорт журналистикаси – рекреативликнинг оммабоп йўналиши сифатида, Тошкент, ЎзМУ хабарлари, №1/4, 2020. – Б. 204.

## **JURNALISTIK MATN TAHRIRINING ETIK TAMOYILLARI**

*Dilfuza TESHABAYEVA*

*filologiya fanlari doktori, professor  
Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti*

***Annotatsiya.** Mediamatnlarning tahrir jarayoni oʻziga xos jihatlardan iborat. Mediada til vositalarini tanlash shaklining murakkabligi bilan baholanadi. Medianing ijtimoiy rolini baholash murakkab boʻlishiga qaramay tahrir bir qator aspektlarni oʻzida mujassam qiladi va ulardan biri tahrirning etik jihatidir. Matnning kommunikativ funksiyasi muharrirdan adresat bilan aloqa oʻrnatuvchi usullarga eʼtiborni qaratishni talab etadi va filologik bilim asosida muharrirning ijtimoiy muloqot tizimidagi rolini anglash imkonini beradi.*

***Kalit soʻzlar:** media tili, uslub, mediamatn, adabiy tahrir, etika, tahrirda xatoliklar, muharrir.*

Media tili adabiy tilimizning intellektual va emotsional sohalarini emotsional-baholash mazmuni bilan yoʻgʻrilgan soʻz, soʻz birikmalari, gaplar kabi til va nutq birliklari bilan boyitib boradi, ifodalilik imkoniyatlarini kengaytiradi, ularni shaklan aniq va ixcham, mazmunan va ekspressiv keng qamrovli nominativ va baholash birliklariga aylantiradi.

OAV faqat tilni emas, balki nutqni ham taraqqiy ettiradi, yangicha koʻrinishlarda uning shakllanishiga xizmat qiladi. OAV doirasidagi tipiklashtirish adabiy til mulkiga ham aylanib boradi. OAV grammatika imkoniyatlaridan oʻziga xos ravishda, uning taraqqiyoti uchun foydalanadi. Jurnalistika fikrni emotsional ifodalashga intilgani sari

ritorik emotsional sintaksisga xos davriy nutq, takrorlash, stilistik figuralar, so‘zlashuv nutqi sintaksisi vositalarining rivojlanishi ham faollashib boradi va OAV orqali iste’mol doirasiga chiqib boradi.

OAV yozma adabiy tilning ilg‘or jabhasi sifatida qolip-jumla va so‘zlarning yangi leksik va stilistik neologizmlar bilan birga qo‘llanishiga, lisoniy ifodaning yangi shakl va kombinatsiyalarini izlab topishga xizmat qiladi va keng imkoniyatlar ochib beradi.

Janrni shakllantiruvchi birliklarga lisoniy vositalardan tashqari maqsadni belgilash, funksional yo‘naltirish, muallif pozitsiyasi, ma’lumotlar bazasi, kompozitsion xususiyatlar kiradi. Barcha darajadagi jurnalistik materiallarning elementlari o‘zaro bog‘liqligi va muvofiqligini nafaqat stilistik jihatdan uyg‘un, balki uning samaradorligini ham hisobga olish zarur. Aniq belgilangan maqsad matn janrida elementlarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Matndagi semantik, stilistik mazmun yuki bizga ma’lum bir funksional ijtimoiy yo‘nalishni o‘z ichiga olgan ish haqida fikr yuritishimizga imkon beradi.

Muharrirning asosiy vazifasi *muallif fikrini aniqlashtirish* va chuqurlashtirish, u yaratgan *asar shaklini mukammallashtirishdan* iborat. Tahrirlash amaliyotining eng yaxshi namunalari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Muharrirni ko‘pincha muallif bilan o‘quvchi o‘rtasidagi «vositachi, dallol, hakam» deb atashadi.

Muallif ↔ muharrir ↔ o‘quvchi tarzidagi sxemada javobli aloqalar o‘z aksini topgan: bunda muharrir muallifdan o‘quvchiga tomon ongli ravishda ta’sir qiluvchi nafaqat mediator, balki o‘quvchi manfaalarini muallif oldida yoqlab chiquvchi vakil sifatida ham namoyon bo‘ladi. OAV tizimida muallif bilan o‘quvchi muloqoti doimo ijtimoiy yo‘nallishga ega. O‘quvchi tirajlangan matnni o‘zining tasavvurlari va ijtimoiy aloqalariga qarab qabul qiladi. Mazkur muammoning murakkabligi aniq va shunga qaramay muharrirni bunga nisbatan yengil qarash havfidan ogoh etish ham zarur.

Tahrirlashning ijtimoiy vazifasini har qanday matnni nutqning tuzilgan, qayta ishlangan, “o‘ziga xos ravishda tashkillashtirilganlik hududi”, “kommunikatsiyaning tartibga solingan shakli” haqidagi xulosasi bilan muvofiqlashtirilishi muharrirning muallif matniga aralashish huquqiga ega ekanligidan dalolat beradi. Biroq muallif va muharrirning o‘zaro munosabatlari hech qachon oson bo‘lmaganligi tahrirlash san’ati

tarixidan barchaga ma'lum. Muharrirning muallif matniga aralashuvi chegaralari o'ta murakkab nafaqat filologik, balki ahloqiy muammo hamdir. Mazkur muammo o'zining dolzarbligini bugungi kunda ham yo'qotmagan. Boshqa shaxsga bosim o'tkazish, o'ziga berilgan hokimlikni suiiste'mol qilmaslik, muallifga o'z imkoniyatlarini iloji boricha to'liq namoyon eta bilishga yordam berish kerak. Muallifning o'zi ham ko'p narsa muharrirga bog'liqligini biladi. Bularning barchasi muharrirning kasbiy, professional etikasi asoslaridan hisoblanadi.

Muallifning muharrir bilan matn ustida hamkorlikda ishlashi har doim ham amalda yuz beravermaydigan mukammal vaziyatdir. Bunda nashrning hajmi, janr talablari va vyorstka shartlarini ham hisobga olish talab etiladi. Ma'lumki, matn bosmaga topshirilishidan avval uning zarariga qilinadigan qat'iy va katta qisqartirishlarga duchor bo'ladi. Bu bilan muharrir zimmasiga qanchalik katta ma'suliyat yuklansa, jurnalist ham matnni nashrga tayyorlashga, muallif satrlari ustidan o'z tuzatishlarini kiritishga shoshmaydigan, muallif mantiqini uqqan, muallif uslubi belgilarini tushuna oladigan shu kishiga minnatdorchiligini bildirishga shunchalik shoshiladi.

O'z ishi jarayoni davomida muharrir o'zini shaxs sifatida namoyon etadi. Uning "men"i uning mehnati, ya'ni adabiy asar matni asosida shakllanadigan munosabatlar orqali ochiladi hamda muallif va tahririyatning boshqa xodimlari bilan bo'lgan munosabatlarida o'zini namoyon etadi.. Har kim ham bu huquqdan foydalana oladimi? Har bir muharrir ham o'z ishining ustasi bo'la oladimi? Ehtimol, buning uchun ma'lum adabiy iste'dod kerakdir, matnni ko'z bilan qabul qila olishni bilish, filologik tadqiqotga moyil bo'lish, o'qib o'rganish istagi, bilimlar to'plash va bularning barchasini ongli va bir maqsadga intilgan holda amalga oshirish kerakdir?!

Muharrirning *o'z tahrirlash uslubi va usullariga ega bo'lishi, matnni o'z ko'zi bilan qabul qila olishni bilishi, o'z ishining ustasi bo'lishi, filologik tadqiqotga moyil bo'lishi kabi shaxsiy sifatlari* mahoratga erishishning shartlaridan hisoblanadi. OAVdagi muharrirning kasbiy psixologiyasining ahamiyati jihatlarini jumlasiga ijodiy mehnatning jamoaviyligi, matn ustida ish olib borayotgan xodimlardagi psixologik ustanovkaning

umumiyligi, har bir jurnalist uchun zarur kasbiy malakalar jumlasiga kiruvchi adabiy tahrirga asoslangan o‘zaro munosabatlar kabilar kiradi.

Biroq boshlovchi muharrirlarning matnga tuzatishlar kiritishlarini kuzatilganda ikki xil holatni ko‘rishimiz mumkin: ularning ayrimlari o‘z bilimlari va imkoniyatlariga ortiqcha baho berish, o‘ta qat’iy tarzda mulohaza yuritish, hatto ba’zan matnga qo‘pol tuzatishlar kiritish kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ysalar, boshqalari o‘ziga ishonmaslik, matnga “qo‘rqib” tuzatish kiritish kabilarga moyil bo‘ladilar.

Boshlovchi jurnalistning dastlabki muharrirlik faoliyati davomida o‘zi bilan o‘zi qolsa, ko‘r ko‘rona namunalarga taqlid qilib tahrir qilishni o‘rgansa, bu juda yomon. Bunday holatlarda faqat tashqi, texnik belgilar har doim ham yaroqli bo‘lavermaydigan qoliplar, stereotiplar yodda qoladi. Shubhasiz, individual ishlash metodikalari ko‘p narsalarga o‘rgatishi, eslatishi mumkin, lekin shuni ham unutmaslik kerakki, tahrir ijodiy mehnat bo‘lgani bois, u har doim betakrordir.

Muharrir bilan muallifning o‘zaro munosabatlari doimo murakkab bo‘lgan. Bayon xususiyatlarini, muallif mulohazalari ketma-ketligini tushunishga intilgan holda, muharrir ma’lum darajada o‘zini unga o‘xshatsada, biroq asarni, borliqni, o‘z hayotiy tajribasi talqinini muallif mulohazalari bilan qiyoslagan holda o‘zining mustaqilligini ham saqlab qoladi. Bunday o‘zaro munosabatlarning psixologik shartlari ijtimoiy muloqotga kirishishni, insonning inson bilan muloqot qilishini taqozo etadi, bularni o‘rganish uchun esa ijtimoiy psixologiyaga murojaat qilish talab etiladi.

Tahrir jarayonining o‘ziga xos jihatlariga asoslanib, muharrirlik ishlovi amalga oshiriladigan, nashr etish uchun muallif tomonidan tasdiqlangan har qanday kitob yoki maqola qo‘lyozmasini matn deb ataganlar. Shuningdek, muharrir ishlashi lozim bo‘lgan tayyor qo‘lyozmaning bir qismi hatto bir ibora yoxud bir abzats ham matn deyilgan. Bunday tariflar matn atalmish hodisani to‘liq ifodasi bo‘la olmagan va bo‘lishlikka da’vo ham qilmaydi, Shunga ko‘ra ilmiy yondashuv uchun asos bo‘la olmaydi. Tahrir matn nazariyasi ilgari suradigan vazifalarni hal etishdan bevosita manfaatdordir.

Nazariy jihatdan hal etilishi lozim bo‘lgan eng muhim vazifalar, aytish mumkinki, quyidagilardir: matnning yaratilish, idrok etish va tushunish jarayonida mazmuniy

tomonini tadqiq etish matniy aloqa birligi sifatida matnni ko'zdan kechirish; matnning axboriyligi masalalarini o'rganish, matn o'zida tashiydigan ma'lumot (axborot)ni tizimlashtirish va tizimdan chiqarish.

Matnning asosiy tavsifi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, muharrir uchun quyidagi matn jihatlari birinchi darajali ahamiyatga egadir: yaxlitlik, bog'liqlik, muayyan belgilarda qayd etilganlik, axboriylik. Albatta, bu jihatlarda muharrir uchun faqat nazariy jihatdan emas, balki amalda ham muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Gorbachevich K. S. *Izmeneniye norm russkogo literaturnogo yazika.* – L., 1971. – S. 270.
2. Gujova I.K. i dr. *Literaturnoye redaktirovaniye: materialy dlya zanyatiy.* M., 2000.
3. Dobrosklonskaya T.G. *Voprosy izucheniya media tekstov: Opyt issledovaniya sovremennoy angliyskoy media rechi.* – M.: MAKS Press, 2000.
4. Do'stmuxammad X. *Jurnalistning kasb odobi muammolari.* – T., 2007.
5. Nakoryakova K.M. *Literaturnoye redaktirovaniye materialov massovoy informatsii.* – M. : Izd-vo MGU, 1994.
6. Teshaboeva, D. M. "Ommaviy ahborot vositalari tilining nutk madaniyati aspektida tadqiqi (ŷzR OAV misolida): Filol. fan. dok.. dis. avtoref." (2012).
7. Дадабаева Х., & Тешабаева Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in *Library*, 3(3), 235–242. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>
8. Ziyayev Avaz Ixtiyorovich. The formation of synonymic and variant paradigms on the basis of intensification/deintensification. *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2.1 (2020): 213-219.
9. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-312-318>
10. Shamaksudova S. et all. Specificity of Massmedia Aspect in Media Text Formation. *Ilkogretim Online*, [s. l.], v. 20, n. 5, p. 455–460, 2021. DOI 10.17051/ilkonline.2021.05.48. Disponível em: <https://research.ebsco.com/linkprocessor/plink?id=9d30e639-1017-3a08-b0b9-c13cf7171871>. Acesso em: 7 jun. 2024.